

Qabul qilindi: 03.02.2025

Chop etildi: 31.03.2025

UDK: 159.955:681.3

GLOBALASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDAGI MUAMMO VA VAZIFALAR

Musayev Umidjon Saidkamolovich, Ma'mun universiteti
"Umumkasbiy fanlar" kafedrası dotsenti, f.f.d., (PhD)

PROBLEMS AND TASKS IN THE INDEPENDENT EDUCATION SYSTEM UNDER GLOBALIZATION

Musayev Umidjon Saidkamolovich, Mamun University "General
professional subjects" associate professor of the department, (PhD)

ПРОБЛЕМЫ И ЗАДАЧИ НЕЗАВИСИМОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Мусаев Умиджон Саидкамоллович, доцент кафедры
"Общепрофессиональные науки" Университета Маъмуна,
д.ф.н., (PhD)



<https://orcid.org/0009-0000-3398-8674>

e-mail:

musayev_umidjon@mamun.edu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va o'zgarishlar, shu bilan birgalikda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlari o'z aksini topishi bilan birgalikda, mustaqillikkacha bo'lgan davrda ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishiga g'ov bo'lib kelgan 12 ta tahliliy asos keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ong, tafakkur, mamlakat, ta'lim tizimi, qonun, oliy ta'lim, maktab ta'limi, islohot, yangilik va rivojlanish.

Abstract: this article reflects the reforms and changes being implemented in the education system of our country, as well as the gradual renewal processes, and presents 12 analytical foundations that have hindered the development of the education system in the period before independence.

Key words: education, upbringing, consciousness, thinking, country, education system, law, higher education, school education, reform, innovation and development.

Аннотация: В данной статье отражены реформы и изменения, реализуемые в системе образования нашей страны, а также поэтапные процессы обновления, а также приведены 12 аналитических основ, которые послужили основой развития системы образования в период до обретения независимости.

Ключевые слова: образование, разум, мышление, страна, система образования, право, высшее образование, школьное образование, реформа, инновации и развитие.

KIRISH. Mazkur maqolada mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kunlaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimiga qaratilayotgan e'tibor, islohotlar va yangiliklar bosqichma-bosqich joriy etilishi, nazariy va amaliy ishlar tizimli ravishda tashkillashtirilib borilishi natijasida o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatib borayotganligi hamda innovatsion yangilanishi ochib berilgan.

Shuningdek, mustaqilligimizdan oldingi davrlarda ta'lim-tarbiya tizimimizning rivojlanishiga to'siq bo'lib kelgan o'n ikkita

tahliliy asos keltirib o'tilgan. Ta'lim tizimini rivojlantirish masalasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan katta ahamiyat berila boshlangan. Dastlabki yillardan ta'lim tizimi innovatsion tarzda shakllantirilib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta'lim tizimidagi olib borilayotgan islohotlar va o'zgarishlar haqida fikr bildirar ekan, bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tib, "Farandalarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart"

degan chuqur ma'noli fikrlari hammaning qalbida chuqur muhrlanib qolgan. Islom Abdug'aniyevich Karimov mamlakatimizning bugungi va ertangi kunini, hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgan yoshlarimizning tafakkuri va dunyo-qarashini keskin o'zgartirgan, mutlaqo yangi ta'lim va tarbiya tizimini yaratish va hayotga tatbiq qilish ishlariga bevosita mualliflik va rahbarlik qildilar. Yurtimizda ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sport kabi muhim sohalar faol tarzda rivojlanmoqda"[1], - deya fikr bildirib o'tgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Maqolada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" nomli asari, nutq va ma'ruzalaridan hamda I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari, S.Tillaboyev, A.Zamonovlarning "O'zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlari)" darsligidan hamda internet saytlardan foydalanilgan. Foydalanilgan materiallar maqolaning ilmiyligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik va vorisiylik, retrospektiv, tizimli funksional tahlil, kompleks yondashuv, sotsiodinamik yondashuv, sotsiologik tahlil, dialektik va sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA. O'tgan XIX-XX asrlarning 140 yili chorizm va SSSR nomi bilan mashhur bo'lgan ittifoqdosh respublikalar davrida tajovuz va zo'ravonlikka, ma'muriy-buyruqbozlik, yakka partiyaviylik, avtoritar boshqaruviga asoslangan tizim samarasiz ekanligi o'z isbotini topdi[2]. Mamlakatimiz mustaqillikka erishish arafasida qo'shni respublikalar qatorida bizni ham ko'plab muammolar girdobiga giriftor etgan edi. Ta'lim tizimida innovatsion yangilanish ham tuzumga mos ravishda o'z aksini topib borgan. O'z navbatida mazkur holatlar, O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini keskinlashtirib, salkam 140 yil mobaynida o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolarni keltirib chiqargan edi:

Birinchidan, XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning boshlarida Turkistonda tarixan mavjud bo'lgan an'anaviy ta'lim tizimi ham davom etib keldi, lekin ularning an'anaviy xususiyatlarini sindirish uchun rus-tuzem maktablari ochilishi va ularning sonining jadal sur'atlar bilan oshirilib borilishi, bir tomondan kimningdir nazarida ijobiy natija sifatida qaralishi mumkin. Aslini olganda,

mazkur islohotlar zaminida rus-tuzem maktablari ta'lim tizimini g'arbona andozalar bilan boyitish maqsadida emas, balki bizning milliy an'ana va qadriyatlarimizga, madaniyatimiz va tilimiz, milliy o'zligimizni yo'q qilishga qaratilgan xatti-harakatlar avj nuqtasiga chiqdi;

Ikkinchidan, yangi usul jadid maktablariga qaratilgan senzura, ta'qiq va tanqidlarining XX asr boshlaridagi avj olishi. Ayniqsa, 1905-yilda Rossiya podshosi tomonidan Turkiston general-gubernatorligida 50 ga yaqin jadid maktabi yopib qo'yilgan bo'lsa, Buxoro amirligida 1913-yilga kelib barcha jadid maktablari yopib qo'yiladi[3]. Binobarin, Turkiston o'lkasi ozodligi va mustaqilligi uchun kurashni ilgari surgan jadidchilik harakati mustabid tuzum uchun ancha xatarli ekanligi namoyon bo'lgan edi;

Uchinchidan, maktablarining rus-tuzemlashtirilishi, g'arbona madaniyatni olib kirish, asosiysi rus tili va shu orqali rus madaniyatini singdirish. Bu orqali tub joy aholining qadriyat va an'analari asta-sekinlik bilan yo'q qilish asosiy vazifa sifatida zimdan e'tibor qaratilgan;

To'rtinchidan, milliy matbuot va jurnalistikaga senzuraning kuchayishi;

Beshinchidan, milliy davlatchiligimiz negizlari hisoblangan amirlik va xonliklarning tugatilishi (Qo'qon xonligi 1976-yil 19-fevral, XXSR va BXSX ning 1924 yilda);

Oltinchidan, xotin-qizlarni go'yoki, paranji va tutqunlikdan "ozod" etish maqsadida ularni o'qimishli va bilimli qilish g'oyasi 1927-yil 8-martda amalga oshirilgan edi. Asl maqsad esa, ishchi sifatida O'rta Osiyo aholisidan zavod-fabrika va dalalarda 100% ishchi kerak bo'ladigan bo'lsa, erkaklar ishchi kuchining 60%ni tashkil etgan, qolgan 40%ni ayollar hisobiga to'ldirish maqsad qilib olingan;

Yettinchidan, tarixan ming yillar mobaynida birga qavm-qarindosh sifatida yashab kelayotgan O'rta Osiyo xalqlarini alohida qilib bo'lib tashlash orqali ularni boshqarish mexanizmini hududiy chegaralanishning o'tkazilishi, yangi ma'muriy birliklarning tuzilishi (O'zSSR 1925-yil 17-fevral, TASSR 1926-yil 16-oktyabr, QASSR 1925-yil, 1936-yil 5-dekabr);

Sakkizinchidan, xalqimizning ruhiyatini sindirishga qaratilgan kollektivlashtirish, sovxozlashtirish va quloqlashtirish xatti-harakatlarning avj olishi;

To‘qqizinchi, alifboning o‘zgartirilishi va uning asosiy maqsadi 1921-1922-yillarda arab alifbosi o‘zbek tilidagi yozuvning isloh qilinishi (ming yillik tarixiy asarlar va allomalarimizning madaniy merosidan uzoqlashtirish, Qur’oni Karim va hadislardan yiroqlashtirish), 1929-yil arab alifbosidagi o‘zbek yozuvidan lotin yozuviga o‘tilishi, lotin alifbosidan foydalaniladigan turk xalqi bilan aloqasini yo‘qotish maqsadida 1940-yil 8-mayda kirill yozuviga asoslangan alifboning joriy etilishi (yozuv asosida madaniyat va mental qarashlarini singdirish) eng asosiylaridan biri bo‘lgan millatning o‘zligini yo‘q qilishiga qaratilganligi bilan ifodalanadi[4];

O‘nichidan, ziyolilarning keng ko‘lamli qatag‘on qilinishi (o‘n sakkizlar guruhi, Inog‘omovichlar O‘zSSR maorif, Qosimovchilar O‘zSSR Oliy sudi raisi, “milliy ittihodchilar” va “milliy istiqloлчаilar” Munavvarqori boshchiligidagi 87 nafar kishi, narkompos O‘zSSR maorif komissari Mannon Ramziy, uning o‘rinbosari Botu, Botir gapchilar – Qo‘qondagi Ashurali Zohiriy boshchiligidagi 19 nafar kishi. Umumiy hisobda 41000 kishi hibsga olinib, 37000 dan ko‘prog‘i jazolandi, 6920 kishi otib tashlandi. Davlat va jamoat arboblari, yozuvchi, shoir va olimlardan 5758 kishi qamoqqa olinib, 4811 nafari otib tashlandi, eng achinarlisi, 1937-yil yozida O‘zSSR XKS raisi Fayzulla Xo‘jayev, O‘zbekiston Kompartiyasi MK birinchi sekretari Akmal Ikromov sayyor sud orqali aybi to‘laligicha isbotlanmasdan otib tashlandi. 19-tog‘li o‘zbek diviziyasi komandiri Mirkomil Mirsharipov va u boshchiligidagi 18 nafar o‘zbek harbiylari 1938-yil otib tashlandi, diviziya tarqatib yuborildi[4];

O‘n birinchi, paxta ishi 1983-yil Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi 1000 nafar markazdan kelgan “desant”chi va 3000 nafar tergovchilarga mahalliy rahbarlar va huquq tartibot organlari yordami bilan 40000 kishi tergov qilindi va 5000 nafari soxtakorlik bilan javobgarlikka tortildi[6];

O‘n ikkinchi, qayta qurish va uning oqibatlarini (aniq va ilmiy jihatdan dasturga ega emasligi, eskicha boshqaruv uslubining saqlanib qolishi, milliy suverenitet berish to‘g‘risida faqat va’da berilishi, Gorbachyov g‘oyalarining bir-biriga mos emasligi, mulkiy munosabatlar, ijtimoiy

sohadagi siyosat, milliy va diniy siyosat, yakka partiyaviy rahbarlik va mustabid tuzumning demokratiya va oshkoralik bilan kelisha olmasligi).

NATIJALAR.

Mamlakatimizda mustaqilligimizning ikkinchi yilining o‘zida universitetlari soni 12 taga yetgan bo‘lsa, 2000-yillarda oliy ta‘lim muassasalarining soni 61 tani tashkil etgan. Ularda 207,2 ming talaba ta‘lim oldi[5]. Mustaqillikning dastlabki 10 yilida OTMLar ikki barobarga, ta‘lim oluvchilar soni 10 barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bu albatta yangilanish va ta‘lim tizimidagi innovatsion o‘zgarish deyishimiz mumkin. 2019-yilga kelganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning uch yillik faoliyatlari davomida 35ta yangi oliy o‘quv yurti tashkil qilindi va ularning umumiy soni 112 taga yetdi. Shu yili xalqaro institutlarning soni 14 taga yetdi[7]. Ularda 373 ming 500 ga yaqin yoshlarimiz ta‘lim olmoqda. Ulardan 168 ming 470 nafarini, ya’ni, 45,1 foizini qizlar tashkil etadi¹.

XULOSA. Ta‘lim-tarbiya tizimidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etmasdan turib, mamlakat rivoji haqida fikrlashning o‘zi noo‘rin. Kreativ fikrlovchi va har ishda innovatsion g‘oyalar taklif eta oladigan yoshlarsiz buning iloji yo‘q, albatta.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йулимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 10.
2. Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 10-16.
3. Тиллабоев С., Замонов А. Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари) – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 138.
4. Ражабов Қ., Замонов А.. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.Б. 75-79.
5. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 31.08.2019.
6. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати давлат раҳбарининг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // www.lex.uz, 2019 йил 28 декабрь.
7. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

¹ Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 31.08.2019.